

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI: AHAMIYATI, SALOHIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

"Ta'lif sifati nazorati bo'limi" bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish jarayoni, uning tarixiy asoslari, asosiy yo'nalishlari hamda iqtisodiy va madaniy-ma'naviy ahamiyati yoritilgan. Davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, infratuzilmani rivojlantirish choralari, marketing strategiyalari va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, ziyorat turizmining xalqaro aloqalarni mustahkamlash va milliy merosni targ'ib qilishdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс развития паломнического туризма в Узбекистане, его исторические основы, основные направления, а также экономическое и культурно-духовное значение. Анализируются реформы, проводимые в рамках государственной политики, меры по развитию инфраструктуры, маркетинговые стратегии и перспективы на будущее. Также показана роль паломнического туризма в укреплении международных связей и популяризации национального наследия.

Abstract: This article examines the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan, its historical foundations, main directions, as well as its economic and cultural significance. It analyzes government policies, infrastructure improvement measures, marketing strategies, and future prospects within the framework of national tourism development. The role of pilgrimage tourism in strengthening international relations and promoting national heritage is also highlighted.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, tarixiy meros, diniy qadriyatlar, infratuzilma, O'zbekiston, xalqaro hamkorlik, halol turizm.

Ключевые слова: Паломнический туризм, историческое наследие, религиозные ценности, инфраструктура, Узбекистан, международное сотрудничество, халяль-туризм.

Keywords: Pilgrimage tourism, historical heritage, religious values, infrastructure, Uzbekistan, international cooperation, halal tourism.

So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini, jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 5-yanvarda qabul

qilingan “Ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4095-son Qarorida shunday deydi: “*Ziyorat turizmi – bu xalqimizning boy tarixiy merosi, milliy va diniy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni keng targ‘ib etish, shuningdek, iqtisodiyotimiz rivojiga hissa qo ‘shishning muhim omilidir.* ”[1]

Shuningdek, 2022-yil 20-apreldagi **PF–131-son Farmonida** turizmni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda ziyorat turizmi infratuzilmasini yangilash, xorijiy sayyoohlar uchun qulay sharoit yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.[2]

O‘zbekiston – Markaziy Osiyoning qadimiyligi sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lib, boy madaniy merosi, ko‘hna shaharlari va muqaddas ziyorat maskanlari bilan butun dunyoga mashhur. Ziyorat turizmi mamlakatimiz turizm tarmoqlaridan eng qadimiyligi va istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunda sayyoohlar diniy qadriyatlar, tarixiy obidalar va buyuk allomalar xotirasi bilan bog‘liq maskanlarga tashrif buyuradilar. Bu turizm turi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston hududi qadimdan islom, buddizm, zardushtiylik, xristianlik kabi turli dinlarning rivojlanish markazi bo‘lgan. VIII asrdan boshlab, ayniqsa, islom dini keng yoyilishi bilan mamlakatimiz hududida ko‘plab madrasa, masjid, maqbaralar qurildi. Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlar diniy va ilmiy markaz sifatida butun musulmon olamida shuhrat qozondi. Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abu Iso at-Termizi, Al-Hakim at-Termizi, Sulton Saodat majmuasi, Shohi Zinda majmuasi kabi ziyoratgohlar asrlar davomida musulmonlarning e’tiqod va ilm manbai bo‘lib kelmoqda.[3]

Ziyorat turizmining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat

1. Islomiy ziyorat maskanlari.

- Imom al-Buxoriy majmuasi (Samarqand viloyati);
- Bahouddin Naqshband maqbarasi (Buxoro viloyati);
- Sulton Uvays Qarani majmuasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi);

- Hazrati Imom majmuasi (Toshkent shahri).

2. Buddaviy meros obyektlari.

- Termiz shahridagi Fayoztepa va Kampirtepa yodgorliklari;
- Surxondaryo viloyatidagi Qoratepa budda ibodatxonasi.

3. Zardushtiylik davri yodgorliklari.

- Qadimiy Xorazm va So‘g‘d hududidagi ibodatxonalar;
- Afrosiyob yodgorligi (Samarqand).

4. Xristianlik yodgorliklari.

- Toshkent va Samarqanddagi pravoslav cherkovlari;
- Eski yevropa me’morchilik namunalar.[4]

Ziyorat turizmining ahamiyati - xorijiy va mahalliy sayyoohlar oqimini oshiradi, mehmonxona, transport, restoranlar xizmatidan foydalanishni ko‘paytiradi. Madaniy-ma’naviy ahamiyatda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni asrab-avaylash, yosh avlodga ma’naviy tarbiya berishda muhim vosita bo‘ladi. Xalqaro aloqalarda esa musulmon mamlakatlari bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlaydi, diniy va ilmiy almashinuvni rivojlantiradi.[5]

O‘zbekiston hukumati ziyorat turizmini rivojlantirish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Masalan Ziyorat turizmi markazlari infratuzilmasini yangilash (yo‘llar, mehmonxonalar, zamonaviy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari), vizani soddalashtirish tizimi (ko‘plab musulmon davlatlari uchun vizasiz rejim), marketing va targ‘ibot ishlari (xalqaro ko‘rgazmalar, onlayn reklama, turpaketlar), mahalliy gid va tarjimonlarni tayyorlash (diniy bilimlarga ega mutaxassislar), rivojlanish istiqbollari shular jumlasidan.

Xulosa qilganda ziyorat turizmi O‘zbekistonning turizm salohiyatida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakatning boy madaniy va ma’naviy merosini dunyoga tanitadi. Tarixiy ziyoratgochlarni asrab-avaylash, ularga zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish

orqali O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ziyorat turizmining yetakchi markaziga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4095-son Qarori. – lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi “Turizmni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-131-son Farmoni. – lex.uz
3. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2020.
4. A.Karimov. O‘zbekistonda ziyorat turizmi: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti. 2021.
5. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. O‘zbekiston ziyorat turizmi salohiyati va xalqaro tajriba. – Ilmiy to‘plam. 2022.